

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.11100403>

O‘ZBEKISTONDA AHOLI BANDLIGI MASALALARI TARIXSHUNOSLIGI

Valiyev Akbar Xalilovich

Jizzax davlat pedagogika universiteti
O‘zbekiston tarixi kafedrasida katta o‘qituvchisi
akbarxon1962@mail.ru

Eshmuradov Abbas Olim o‘g‘li

Jizzax davlat pedagogika universiteti, tarix fakulteti -3 kurs talabasi

***Annotasiya:** Ushbu maqolada O‘zbekistonda aholi bandligini hal etish masalalari tarixshunosligi mavjud manba va adabiyotlar asosida tahlil qilinadi. Shuningdek, aholi bandligi sohasini tartibga soluvchi qonunchilik masalalariga ham e‘tibor qaratilgan.*

***Kalit so‘zlar:** Bozor iqtisodiyoti, bandlik borasidagi davlat siyosati, ijtimoiy siyosat, ijtimoiy himoya, ish o‘rinlari, bandlik masalalari, mehnat bozori.*

ИСТОРИОГРАФИЯ ВОПРОСОВ ЗАНЯТОСТИ НАСЕЛЕНИЕ В УЗБЕКИСТАНЕ

Валиев Акбар Халилович

Джизакский Государственный Педагогический Университет
старший преподаватель кафедры История Узбекистана
akbarxon1962@mail.ru

Эшмуратов Аббос Олим угли

Джизакский государственный педагогический университет, исторический факультет – студент 3 курса

***Аннотация:** В статье на основе доступных источников и литературы анализируется историография вопросов занятости населения в Узбекистане. Также уделено внимание законодательным вопросам, регулирующим сферу занятости.*

***Ключевые слова:** Рыночная экономика, государственная политика занятости, социальная политика, социальная защита, рабочие места, вопросы занятости, рынок труда.*

HISTORIOGRAPHY OF EMPLOYMENT ISSUES IN UZBEKISTAN

Valiev Akbar Khalilovich

Jizzakh State Pedagogical University senior lecturer of the
department History of Uzbekistan
akbarxon1962@mail.ru

Eshmuradov Abbas Olim coals

Jizzakh State Pedagogical University, Faculty of History – 3rd year student

Annotation: *The article, based on available sources and literature, analyzes the historiography of employment issues in Uzbekistan. Attention is also paid to legislative issues regulating the employment sector.*

Keywords: *Market economy, state employment policy, social policy, social protection, jobs, employment issues, labor market.*

Ushbu mavzusini tanlash, shu bilan izohlanadiki har qanday jamiyatda mehnat har doim tarixiy rivojlanishning eng muhim omili bo‘lib kelganligi bilan bog‘liq va bandlik va ishsizlik masalalari eng muhim va dolzarb ijtimoiy-iqtisodiy muammolar bo‘lib qolmoqda va bu masalaga nafaqat davlat arboblari, balki tadqiqotchilarning ham alohida e‘tibori ortdi.

Fuqorolarga munosib ish o‘rinlari va joylarini yaratish borasidagi davlatning faoliyati qator holatlarga, eng avvalo mazkur davlatning siyosiy tizimiga, maqsad qilub qo‘yilgan va amalga oshirilayotgan chora tadbirlarga, hamda ularga erishishning yo‘llari bilan belgilanadi.

Respublikamizni ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor munosabatlari asosidagi rivojlanishi, mamlakatimiz aholisi tassavuriga kelmagan yangi voqelikni, ishsizlik muammosini keltirib chiqardi. Ishsizlik bozor iqtisodiyotining murakkab hodisasi sifatida bugungi kunda turli bilim sohalari mutaxassislari: iqtisodchilar, huquqshunoslar, sotsiologlar, siyosatshunoslar, tarixchilarning e‘tiborini tortayotgani bejiz emas.

Lekin, aholi bandligi tarixini tadqiq qilishda tarixchi olimlarning faoliyatlari ham ahamiyatli hisoblanadi. Tarixchi uchun mamlakat o‘tmishi taraqqiyotining muayyan bosqichida muammo mavjudligini oddiygina bayon qilishning o‘zi yetarli emas. Haqiqiy tarixiy tahlil O‘zbekistonda sodir bo‘layotgan ijtimoiy-siyosiy o‘zgarishlar doirasida O‘zbekistonda ishsizlikning haqiqiy manzarasini olish uchun turli manbalar bilan solishtirib, sabablarini ochib berishga qaratilgan.

O‘zbekistonda bozor islohotlari mehnat bozorining shakllanishi, bandlik sohasida o‘ta noaniq jarayonlar bilan kechmoqda. Aholi bandligini ta‘minlash va ishsizlikka qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosati tarixini o‘rganish nafaqat kognitiv, balki amaliy ma‘noga ham ega. Shuning uchun ham Vatanimiz tarixining har bir davridagi aholini bandligi masalalarini, uning o‘ziga xos jihatlarini tahlil qilish va yoritish, tarixchi olimlar uchun dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Davlat aholi bandligini to‘liq va eng samarali ta‘minlashga ko‘maklashish bo‘yicha maqsadli siyosatni, jumladan, shahar va tumanlarning o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda huquqiy, moliyaviy va pul-kredit choralari amalga oshirmoqda. Bandlikning moslashuvchan va yakka tartibdagi shakllarini rag‘batlantirish katta ahamiyatga ega.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 2018-yilning dekabr oyida O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 26 yilligiga bag‘ishlangan tantanali yig‘ilishda «Aholini bandligini ta‘minlash, ishsizlikni qisqartirish bo‘yicha tezkor chora-tadbirlar ko‘rishimiz zarur. Savol tug‘iladi: mamlakatimizda ishsizlarning haqiqiy soni qancha? Aholining necha foizi norasmiy sektorda band? Qanchadan-qancha vatandoshlarimiz xorijga ish izlab ketgan? Bitta ishsiz odam o‘nta muammo ekanligini tushunishimiz kerak. Oilaga, mahallaga, jamiyatga yetkazilishi mumkin bo‘lgan zararni baholasangiz, bu masala naqadar dolzarb ekanini ko‘rasiz» [15. 200.].

Aholi bandligini ta‘minlash bo‘yicha davlat siyosatini qonunchilik bilan tartibga solishda O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi [14. 9.], Mehnat kodeksi [18.] va O‘zbekiston Respublikasining «Aholini ish bilan ta‘minlash to‘g‘risida»gi Qonuni muhim o‘rin tutadi [13.].

2016 yilning so‘ngi choragidan boshlab mamlakatimizda bandlik va mehnat munosabatlarini boshqarish sohasida yangilanishlar sodir bo‘ldi. Respublikamiz Prezidenti tomonidan 2017-yilning 7-fevralida PF-4849-son qarori bilan 2017–2021-yillarda O‘zbekiston Respublikani rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi tasdiqlandi. Ushbu Strategiyadagi to‘rtinchi yo‘nalishidagi Ijtimoiy sohani rivojlantirishda, aholini ish bilan ta‘minlash masalalariga alohida e‘tibor qaratilgan [17.].

Strategiyada belgilangan vazifalarni hal etish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 24-maydagi “Aholini ish bilan ta‘minlash sohasida davlat siyosatini yanada takomillashtirish va ish samaradorligini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5052-son qarori bilan Mehnat vazirligi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligiga aylantirildi. Ushbu islohot aholi bandligini ta‘minlash sohasida davlat siyosatini amalga oshirishga yangi yondashuvlarni joriy etish, mehnat bozori infratuzilmasini, shu jumladan, davlat-

xususiy sheriklik asosida shakllantirish, aholini ish bilan ta'minlash bo'yicha samarali chora-tadbirlarni amalga oshirishga qaratildi.

Aholi bandligini ta'minlash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biridir. Ishsiz fuqarolar toifasini ijtimoiy himoya qilishning asosiy strategik maqsadi aholi bandligini ta'minlashga xizmat qiladigan faoliyat sohaslarini aniqlash, ishchi kuchiga bo'lgan talabni oshirish va mehnat bozori talablariga muvofiq undan samarali foydalanishni qo'llab-quvvatlashdan iborat. Ishsizlarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlashning kontseptual vazifalari respublika va hududiy bandlik siyosati, shuningdek, hududiy darajada bandlik sohasidagi umumiy vaziyat bilan belgilandi.

Vatanimiz tarixshunosligi fanida bandlik va mehnat munosabatlari masalalariga eskirgan yoki yangilangan mavzu sifatida baho beriladi. Ishsizlikni o'rganishning turli kontseptual yondashuvlarida davlatning ushbu hodisaga nisbatan rasmiy siyosati, go'yo mamlakat rivojlanishining turli tarixiy bosqichlarida yo'naltirilgan edi. Shu sababli, XX-asr oxiri va XXI-asr boshlarida mahalliy ijtimoiy fanlar tafakkurining rivojlanishining bandlik va ishsizlik muammolariga bag'ishlangan asosiy bosqichlarini ko'rib chiqish qiziqish uyg'otadi. Mazkur maqola doirasida turli yillarda chop qilingan har xil turdagi manbalardan foydalanildi. Xususan, Xalqaro Mehnat Tashkiloti tomonidan chop qilingan nashrlar, Respublikamiz Prezidentining Farmon va qarorlari, nashr etilgan yangi kitoblaridan, hukumat va vazirliklarning normativ-huquqiy hujjatlari, statistik ma'lumotlar, davriy nashrlar, jurnalistika, shuningdek, Internet manbalari ushbu masalani o'rganish uchun asosiy manba bo'ldi.

Takidlash joizki Respublikamizda Harakatlar strategiyasi doirasida aholi bandligini ta'minlash masalalari bilan asosan mehnat iqtisodi sohasida faoliyat ko'rsatayotgan iqtisodchi olimlar shug'ullanishganligini guvohi bo'ldik. Ular qatoriga Қ. X. Абдурахмонов, N. T. Shoyusupova, A. Xaitov va boshqa olimlarning ishlarini kiritish mumkin [1. 10-20.], [2. 25.], [19.].

O'zbekistonda aholi bandligini hal etish masalalari tarixshunosligining ayrim jihatlari tarixchilarimiz tomonidan o'rganilgan. Ulardan D. Bobojonova, A. Dusboyev, A. X. Valiyevlarni keltirish mumkin. Jumladan D. Bobojonova sovetlar hukmronligining so'ngi o'n yilligida Respublikamizda aholini ish bilan ta'minlash borasidagi qiyinchiliklar, O'zbekiston hukumatining aholi bandligini ta'minlash va ishsizlikni qisqartirish borasidagi amalga oshirilgan chora-tadbirlar masalalarini yoritgan[3.].

Temuriylar davrida aholini ijtimoiy himoyalash, Amir Temurnining ijtimoiy himoya va aholini ish bilan ta'minlash borasidagi amalga oshirgan chora-tadbirlari A. Dusboyev tomonidan tarixiy dalillar asosida yoritilgan[12.].

A. X. Valiyev o‘zining qator maqola va kollektiv hamda yakka yozilgan monografiyalarida aholini ijtimoiy himoyalash va aholi bandligini ta’minlash borasida Respublikamizda amalga oshirilgan chora tadbirlar masalalarini o‘rgangan. Muallif tomonidan Harakatlar strategiyasi doirasida aholini ijtimoiy himoya qilish, aholi bandligi borasida amalga oshirilgan ishlar ishonchli manbalar asosida bayon qilingan[8.], [9. 200-208], [10. 274–279], [11. 117–122.].

Mavzu bo‘yicha tarixshunoslikni o‘rganish shuni ko‘rsatadiki, aholi bandligi tarixi, xususan Harakatlar strategiyasi doirasida aholi bandligining ta’minlanishi masalalari deyarli qo‘l urilmagan mavzu hisoblanishi bizni ushbu mavzuni mavjud manba va adabiyotlar asosida tahlil qilishga undadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Абдурахмонов Қ. Х. Mehnat iqtisodiyoti va sotsiologiyasi. Toshkent. «Fan va texnologiya» 2012;
2. Абдурахмонов Қ. Х. Shoyusupova N. T. Aholi ish bilan bandligi. Toshkent. 2011;
3. Bobojonova D. O‘zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar tarixi. Toshkent.: «Sharq» 1999;
4. Валиев А. Х. Қаторда норинг бўлса (Ўзбекистонда аҳоли бандлиги муаммосининг ҳал этилиши ҳусида)// Иқтисод ва ҳисобот журнали №12 1996 йил.Б 64-65;
5. Валиев А. Х. Политика государства в обеспечении занятости населения// Миллий ўзликни англаш ва мозийга назар. Илмий мақолалар тўплами. Тошкент, 2013 йил.Б. 48-52.;
6. Валиев А. Х. Занятость населения в условиях рыночной экономики// Ёш олим ва талабаларнинг “XXI аср – интеллектуал ёшлар асри”. Худудий илмий-амалий конференцияси матиреаллари. Жиззах 2014 йил 23-24 май.Б. 61-64.;
7. Валиев А. Х. Вопросы занятости женщин в условиях независимости Узбекистана//“Аёл маънавият гулшани” мавзусидаги VIII Республика илмий-амалий анжуман материаллари. Жиззах 2016 йил 13-14 май. Б. 43-45;
8. Валиев А. Х. Социальная защита населения Узбекистана на первом этапе экономических реформ. Монография ISBN 978-9943-5632-8-9 © «VNESHINVESTPROM», ДЖИЗАК 2019.;
9. Валиев А. Х. Политика государства в вопросах занятости населения Узбекистана. Очерки по истории государственности: политика, экономика, культура. Национальный Университет Узбекистана имени Мирзо Улугбека

Исторический факультет, Новосибирский Государственный Университет Гуманитарный институт. Монография Ташкент. 2020. Б. 200-208;

10. Валиев А. Х. Решение вопросов занятости населения в условиях Узбекистана // Будущее сферы труда: глобальные вызовы и региональное развитие: сборник статей Международного форума / под ред. Г. Р. Баймурзиной, Р. М. Валиахметова. Уфа: «Мир печати», 2019. С. 274–279;

11. Валиев А. Х. Государственная политика Узбекистана в сфере занятости населения // Коммуникативная культура: история и современность : материалы XI Междунар. науч.-практ. конф. 29 окт. 2021 г. : в 2 ч. / редкол.: О. Д. Журавель (отв. ред.), А. С. Зуев (отв. ред.), Ю. С. Елисеева (отв. секретарь) [и др.] Новосиб. гос. ун-т. — Новосибирск : ИПЦ НГУ, 2021. — Ч. 2. — 132 с. С. 117–122.;

12. Дусбоев А. Вопросы социальной защиты в средневековых государствах. Опыт Тимуридов.// Наука и мир. Международный научный журнал, № 2 (30), 2016, Том 3 Б. 110-113;

13. Закон «О занятости населения» 20 октября 2020 г., № ЗРУ-642. (Национальная база данных законодательства, 20.10.2020 г., № 03/20/642/1396);

14. Конституция Республики Узбекистан от 8 декабря 1992 года (с изменениями и дополнениями по состоянию на 04.09.2019 г.) С. 9;

15. Мирзиёев Ш. М. Янги Ўзбекистон стратегияси. - Тошкент “O‘zbekiston” нашриёти, 2021. С. 200 бет.;

16. Мирзиёев Ш. М. Янги Ўзбекистон стратегияси. - Тошкент “O‘zbekiston” нашриёти, 2021. С. 200 бет.

17. www.Lex.uz. Указ Президента Республики Узбекистан Шавката Мирзияева № УП-4947 от 7 февраля 2017 года «О Стратегии действий по дальнейшему развитию Республики Узбекистан».;

18. Трудовой кодекс Республики Узбекистан Утвержден Законом Республики Узбекистан от 21.12.1995 г. С изменениями в соответствии с Законом РУз от 09.01.2019 г. № ЗРУ-514 Национальная база данных законодательства, 11.05. 2019 г., №03/19/536/3114 <http://fmc.uz/legisl.php?id=ktrud>.;

19. Хайтов А. Совершенствование механизмов трудоустройства молодежи в Республике Узбекистан.// Жамият ва бошқарув. 1 сон 2018 Б. 80.